



## Omon Matjon ijodida ishq-muhabbat tarannumi

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi**  
**Urganch davlat universiteti talabasi**  
[abdusharifovasarvinoz@gmail.com](mailto:abdusharifovasarvinoz@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘tkir qalam sohibi, teran fikrli shoir Omon Matjon ijodida uchraydigan, abadiy mavzular sirasiga kiruvchi ishqiy mavzudagi she’rlar tahlil asosida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ishqiy mavzudagi she’rlar, abadiy mavzu, yor va oshiq, hajr, visol, sadoqat.

Muhabbat mavzuyi adabiyotimizdagi eng qadimiy mavzulardan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ehtimol she’riyat o‘z tarixini ana shu mavzu bilan boshlagan bo‘lsa ham ajab emas[2:133]. Biz bejiz maqolani adabiyotshunos Jumagul Jumaboyevaning yuqoridagi fikrlari bilan boshlamadik. Butun yer yuzasida hech bir shoir, yozuvchi yoki dramaturg yo‘qki, ushbu adabiy mavzuga (ma’naviy-axloqiy turmush bilan bog‘liq oila, sevgi-muhabbat, vatanparvarlik, e’tiqod, o‘zi yashayotgan zamonga, jamiyatga munosabat kabilar adabiyotning abadiy mavzularidir[1:48]) murojaat qilmasa. Muhabbat nafaqat klassik adabiyot namunalarida, balki zamonaviy she’riyatda ham o‘zining yuksak mavqeyiga ega. Shu jumladan, shoir Omon Matjon ijodining asosiy qismini ham ishqni madh etuvchi she’rlar tashkil qiladi.

Barcha adabiyot namunalarida birdek keng qo‘llanuvchi bu mavzu har bir ijodkorning ijod namunalarida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Ishq tushunchasi na makon, na zamon tanlaydi. Bu tuyg‘uga muhtalo bo‘lgan shaxs xoh shoh bo‘lsin, xoh gado bo‘lsin, bari birdek sinovdan o‘tadi, hijron azobida o‘rtanadi. Omon Matjon she’riyatida ham bu o‘rtanish, yonishlar o‘zgacha sadoqat va mehr bilan tilga olinadi. Shu jumladan, shoirning ishqiy mavzu yaratilgan quyidagi she’rida ham ishqdan ezilgan lirik qahramonning qalb kechinmalari go‘zal badiiy topilmalar orqali tasvirlangan. She’rda:

Kuz yoysa ham yo‘llarga xazon,  
Qor ko‘msa ham borliqni butun,  
Ko‘klam kelib ursa ham xandon,



Eshigingdan o‘turman bir kun[3:35].

Kabi misralar berilgan bo‘lib, kuz, qish, ko‘klam singari fasllar oshiqning uning sevgisiga befarq yorga cheksiz muhabbat-u sadoqatini ko‘rsatib beruvchi obrazlar hisoblanadi, ya‘niki xazon bu o‘rinda hijron ramzi bo‘lib, lirik qahramonning tushkun kayfiyatini ochib berish uchun qo‘llangan, qor timsoli orqali esa sevgan kishisi uchun barcha sinovlarga shay turgan oshiqning nima bo‘lishidan qat‘i nazar yor visoliga intilib yashashidan dalolat beradi. Shoir keyingi misrada ko‘klamning xandon urish holatini keltirar ekan, lirik qahramonning sevgisiga sodiq qolgan ravishda o‘zga go‘zalliklarga uchmasligini ta‘kidlaydi, shu bilan birgalikda ushbu bandda lirik qahramonning har dam oshiqning qay on bo‘lishiga qaramasdan hatto “qor ko‘msa ham borliqni butun” yorning eshigidan bir kun o‘tish holatini tasvirlaydi.

Keyingi bandda yorning faqat ko‘rinishiga emas, balki qalbiga oshiq lirik qahramonning yillar o‘tib sevgilisining qora sochlariga oq oralasa ham, keksayib yuzlariga ajin tushib, go‘zalligi tugasa ham unga bo‘lgan ishq hech so‘nmasligini, barbir uni qo‘msab qachondir bir kun o‘zing ham qarib, munkayib gavdasiga titroq kirsam ham eshigigan o‘tishi beriladi:

Sochlaringga tushsa hamki oq,  
Peshanangni bossa ham ajin,  
Kirganda ham gavdamga titroq  
Eshigingdan o‘tarman bir kun[3:35].

Uchinchi bandda oshiqning tushkun holati aks etgan bo‘lib, sevikli yorning uning ishqini rad etsa ham boshini quyi solib, yana uni ko‘rishga intilishi, yana qachondir egilgan boshi bilan yana shu eshikdan, yor eshigidan o‘tishi bayon etilgan:

Mayli, shunda tanimasang ham,  
Yoki desang ko‘rmayin turqin,  
Yoshim yutib, boshim qilib ham,  
Eshigingdan o‘tarman bir kun[3:35].

To‘rtinchi bandda shoir lirik qahramonning unga ko‘ngil bermagan, jafakor yor qachondir uni demasdan bu dunyoni tark etsa ham, oshiq barbir uni sevishini, uni yot etib, xotirini obod etishini go‘zal misralar bilan chizib beradi. She‘rni oxirgi bandini tahlil qilar ekanmiz, bu bandni asarning kulminatsion qismi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ya‘ni ushbu so‘nggi misralarda jismi tirik damda yorni damo-dam yod etgan oshiq, joni tanasidan chiqsa ham, hatto o‘lgan taqdirda ham, garchi sevgan yori uni yo‘qlamasa ham, bu dunyoni tark etayotganida ham yorning eshigidan o‘tadi:



Vaqtim yetib chiqsa bu jonim,  
Dardlaringa yasalsa yakun,  
Bu dunyoni tark etar onim  
Eshigingdan o'tarman bir kun[3:35].

Shoirning "Firuza" deb nomlangan she'rda ham oshiqning hijron onlaridagi holati aks etgan bo'lib, ijodkor ushbu she'rda o'zining novator shoir ekanligini yana bir karra isbotlaydi. She'r o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, banddagi har bir so'z o'zaro ohangdoshlik asosida qurilgan:

Kelmading.  
Qushlar cho'chib ketdi qoshimdan,  
Tushlar cho'chib ketdi yoshimdan,  
Hushlar uchib ketdi boshimdan,  
Kelmading[3:26].

Shoir she'riyatida ishqiy mavzuni ochib berishda to'rtliklar alohida ahamiyatga ega. Omon Matjon qalamiga tegishli ushbu to'rtlikda ham ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi:

Boqsalar dilbarginam, ko'kda quyosh to'lqinlanur,  
Qallda qon, tanglayda til, ham ko'zda yosh to'lqinlanur.  
Balki olam boshlanur shul qoracho'g'dan ayo,  
Boqsa dengiz tosh bo'lur, tog'larda tosh to'lqinlanur[3:78].

Ushbu to'rtlik band she'rda oshiq yorning kulgichlarini tilga olar ekan, oydek ko'ngli yarim oshiqning ko'nglini to'ldirguvchi, mahzun kayfiyatda qolgan kuni tundek qorong'ulikda qolgan oshiqning ko'nglini to'ldirguvchi, uni qorong'u tundan yorug' kunga yetaklovchi deya yorning kulgichlarni tasvirleydi. So'nggi misrada oshiq yor suyuklisidan o'zining qora sochlari bilan uni kulgichlariga asir qilishini so'raydi:

Oy kabi ko'nglim yarim – to'dirguvsi kulguchlaring,  
Dilni tundan qutqarib kuldigusi kulgichlaring.  
Kulgichingga bandi et ko'nglimni sen zulfing bilan,  
O'ldirar bo'lsa kulib o'ldirgusi kulgichlaring[3:80].

Hijron – oshiqning doimiy yo'ldoshi. Sevgan yorini sog'ingan lirik qahramon hijron onlarini qorong'u tunga qiyos qiladi. Biroq uning hijron zimistonini yorning xayoli oy bo'lib nurafshon qiladi. Yorini qo'msagan oshiq agarda ular birga bo'lishsa, qo'lni qo'lga berib ayriliq shomini quvlab ketgazishini xayol qiladi:



Bugun oy botganda seni sogʻindim,  
Xayoling oy boʻlib ovutdi biroq,  
Yonimda boʻlsayding, ayriliq shomin  
Qoʻlni qoʻlga berib quvlardik yiroq[4:149].

Ishq shu qadar nekbin tuygʻuki, bu tuygʻuni his qilgan shaxsni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi. Xoh yaxshi, xoh yomon odam boʻlsin, ular ishqda ijobiy, salbiy toifaga ajratilmaydi. Chunki ishq dengiziga bir bora shoʻngʻib, uning duri jilosini koʻrgan kishi bu jilodan yana bahra olish uchun bu dengizga qayta-qayta shoʻngʻiydi. Shoir Omon Matjon oʻz sheʼrlarida ishqning ana shunday qudratli kuch ekanligini, ishqda sinalayotgan oshiqning ruhiy holatini bir-biridan goʻzal misralar orqali tarannum etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Ulugʻov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2017;
2. Jumagul Jumaboyeva. Omon Matjon. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993;
3. Omon Matjon. Seni yaxshi koʻraman. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1981.
4. Omon Matjon. Iymon yogʻdusi. – Toshkent; Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985.